

Qashqadaryo viloyati statistika boshqarmasi



100,2



131,9




140,5



63,5

2023- YIL YANVAR-MART OYLARIDA ASOSIY KAPITALGA INVESTITSIYALAR







2023- yilning yanvar-mart oylarida 3083,9 mlrd. so'm asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilib, ularning 26,3 % i yoki 797,8 mlrd. so'mi jalb etilgan mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan bo'lsa, korxonalar, tashkilot va aholining o'z mablag'lari hisobidan 24,2 % yoki 447,8 mlrd. so'm moliyalashtirildi.

Jami investitsiyalar hajmida, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi, 2022- yildagi ulushiga nisbatan 10,1 % punktga ko'payib, 14,5 % ni yoki 447,8 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 2636,1 mlrd. so'm yoki jami investitsiyalarning 85,5 % investitsiyalari o'zlashtirilib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 10,4 % punktga kamaydi.




Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, mlrd.so'm



2023- yilning yanvar-mart oylarida korxonalar va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 760,7 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 24,7 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 13,7 % i yoki 421,5 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.



To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1374,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2022- yilning mos davriga nisbatan 2,4 % punktga ko'payib, 55,5 % ni tashkil etdi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar



Shuningdek, tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 79,4 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 2,6 % ini tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan 5,1 % punktga kamaydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 150,8 mlrd. so'm (4,9 % va 3,0 % punktiga ko'paydi), kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar 1123,1 mlrd. so'm (36,4 % va 6,4 % punktga kamaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 25,9 mlrd. so'm (0,8 %), Respublika budjeti 243,4 mlrd. so'm (7,9 % va 6,6 % punktga ko'paygan), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi tomonidan 27,6 mlrd. so'm (0,9 % va 0,1 % punktga ko'paydi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan, % da




Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha yuqori ko'rsatkich O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlarda kuzatilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 186,5 % ga ko'paydi. Bu yuqori o'sish "TALIMARJON ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ tomonidan quvvati 900 mVt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

2023- yil yanvar-mart oylarida hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar

	Investitsiyalar hajmi, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da	O‘zbekiston Respublikasidagi ulushi, % da
Qashqadaryo viloyati	3083,9	72,9	100,0
Qarshi sh.	419,8	76,8	13,6
Shahrisabz sh.	64,5	267,5	2,1
tumanlar:			
G‘uzor	445,1	39,5	14,4
Dehqonobod	62,1	102,1	2,0
Qamashi	67,3	128,3	2,2
Qarshi	162,2	62,3	5,3
Koson	153,2	49,3	5,0
Kitob	150,2	22,7	4,9
Mirishkor	31,3	18,5	1,0
Muborak	725,1	109,6	23,5
Nishon	185,7	193,4	6,0
Kasbi	208,5	355,1	6,8
Ko‘kdala	33,9	0,0	1,1
Chiroqchi	94,0	172,9	3,0
Shahrisabz	125,4	183,7	4,1
Yakkabog‘	155,6	199,1	5,0

Shuningdek, kafolatlanmagan va boshqa xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o‘zlashtirilgan investitsiyalar 2022- yilning mos davriga nisbatan 62,1 % ga ko‘paydi. Bunday natijani mebel ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirayotgan "HISORAKGIDROQURILISH" MChJ tomonidan Germaniya va Turkiya davlatlaridan kiritilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

2023- yil yanvar-mart oylarida investitsiyalarning o'sish sur'atlari, % da




Hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha 2022- yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 355,1 % ga o'sib, Kasbi tumanida kuzatildi. Bu asosan klaster asosida tashkil etilgan "INDORAMA AGRO" MChJ XK tomonidan kiritilgan.

Shuningdek, Shahrisabz shahrida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 267,5 % ni tashkil qildi. Bunday natijani mebel ishlab chiqarish loyihagini amalga oshirayotgan "HISORAKGIDROQURILISH" MChJ tomonidan Germaniya va Turkiya davlatlaridan kiritilgan investitsiyalar bilan

izohlash mumkin.


Nishon tumanida asosiy kapitalga investitsiyalar hajmining 2022- yilning mos davriga nisbatan 193,4 % ni tashkil etishi, "TALIMARJON ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ quvvati 900 mVt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.



Mashina, uskuna, inventar

Qurilish-montaj ishlari


Boshqa xarajatlar



Qashqadaryo viloyati bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida mashina, uskuna va inventarlarga 1 426,0 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 46,2 % ini tashkil etdi, qurilish-montaj ishlari bo'yicha 1 287,4 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 41,7 %) va boshqa xarajatlarga 370,5 mlrd. so'm (12,1 %) o'zlashtirildi.



Yangi qurilish



Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya



Boshqa yo'nalishlar

Hududlar kesimida jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Muborak tumanida kuzatildi – 38,6 % yoki 279,9mlrd. so'm.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qamashi tumanida kuzatilib, 23,0 % ni yoki 14,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Muborak tumanida mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich – 58,2 % yoki 422,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Joriy hisobot davrida ham asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo'naltirildi. Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1157,7 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 37,5 % ini tashkil etdi.


Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich "TALIMARJON ISSIQLIK ELEKTR STANSIYASI" AJ tomonidan quvvati 900 mVt kuchlanishga ega ikkita bug' gaz uskunalarini qurish bo'yicha o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirilgan investitsiyalar 1133,6 mlrd. so'mni tashkil etdi va respublikadagi jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 36,8 % ini tashkil etdi. Qolgan 25,7 %, ya'ni 792,6 mlrd. so'm boshqa xarajatlarga yo'naltirildi.


Hududlar bo'yicha yangi qurilish ishlarining ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha kengaytirish, rekonstruksiya va modernizatsiya uchun investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha boshqa yo'nalishlarda o'zlashtirilgan investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da




Hududlar bo'yicha mashina, uskuna va inventarlarga investitsiyalar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



HUDUDLAR BO'YICHA QURILISH-MONTAJ ISHLARIGA INVESTITSİYALAR ULUSHI, JAMI INVESTITSİYALARGA NISBATAN, % DA



Hududlar bo'yicha boshqa xarajatlar ulushi, jami investitsiyalarga nisbatan, % da



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida ishlab chiqarish sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu iqtisodiy faoliyat turida jami

moliyalashtirish manbalari hisobidan 1 086,3 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 35,2 % o'zlashtirilgan.

Ishlab chiqarish sanoati tarkibida eng ko'p investitsiyalar o'zlashtirilgan 3 ta faoliyat turlari quyidagilar:


GAZNI QAYTA ISHLASH
587,2 mlrd. so'm
Ulushi 19,0 %

BOSHQA NOMETALL MINERAL MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQRISH
118,7 mlrd. so'm
ulushi 3,8 %

TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH
263,8 mlrd. so'm
ulushi 8,6 %

Tog'-kon sanoatida jami 595,2 mlrd.so'm yoki viloyat bo'yicha jami investitsiyalar hajmining 19,3 % i o'zlashtirilgan bo'lib, uning tarkibidan 19,0 % i yoki 587,2 mlrd. so'mi xom neft va tabiiy gaz qazib chiqarish sohasiga tegishlidir.

Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar, jamiga nisbatan % da



Hududlar kesimida asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar


mlrd. so'm

	Jami	To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar	Kafolatlan-magan boshqa investitsiya va kreditlar
Qashqadaryo viloyati	3083,9	251,6	150,8	1123,0
Qarshi sh.	419,8	14,8	44,6	44,0
Shahrisabz sh.	64,5	-	3,1	20,6
tumanlar:				
G'uzor	445,1	-	-	183,4
Dehqonobod	62,1	-	-	0,8
Qamashi	67,3	3,4	-	34,6
Qarshi	162,2	39,9	-	56,8
Koson	153,2	-	5,7	64,2
Kitob	150,2	62,9	-	11,3
Mirishkor	31,3	-	-	7,0
Muborak	725,1	5,1	-	490,6
Nishon	185,7	-	58,9	39,2
Kasbi	208,5	114,3	-	57,4
Ko'kdala	33,9	-	-	-
Chiroqchi	94,0	-	-	26,3
Shahrisabz	125,4	-	38,5	22,8
Yakkabog'	155,6	11,3	-	64,1

2023- yil yanvar-mart oylarida 1 525,5 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga investitsiyalarning 49,5 % i xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibida xorijiy investitsiyalar 617,4 mlrd. so'mni tashkil etdi va qolgan 908,1 mlrd. so'm xorijiy kreditlar hisobiga to'g'ri keldi.

IJTIMOY SOHA OBYEKTLARINI ISHGA TUSHIRISH



	Xonadonlar soni, birlik	Maydoni, ming kv.m
Qashqadaryo viloyati	1060	192,5
Qarshi sh.	85	10,0
Shahrisabz sh.	37	8,4
tumanlar:		
G'uzor	90	23,4
Dehqonobod	75	12,1
Qamashi	60	11,3
Qarshi	76	12,7
Koson	110	22,4
Kitob	120	29,2
Mirishkor	0	-
Muborak	50	6,1
Nishon	29	3,7
Kasbi	90	17,5
Ko'kdala	0	-
Chiroqchi	148	19,9
Shahrisabz	0	-
Yakkabog'	90	15,8

Qashqadaryo viloyatida ijtimoiy soha obyektlarini ishga tushirish

Qishloq joylar ulushi

0,0 km
uzunlikdagi suv
tarmog'i



Suv tarmog'i qurilishida investitsiyalar o'zlashtirilmadi,.

0,0 km
uzunlikdagi gaz
tarmog'i



Gaz tarmog'i qurilishida investitsiyalar o'zlashtirilmadi.

9727 o'quvchi
o'ringa
mo'ljallangan
maktablar




Maktablar qurilishida jami 13,5 mlrd. so'm investitsiyalar Respublika budjeti hisobidan o'zlashtirildi.

4260 o'ringa
mo'ljallangan
maktabgacha ta'lim
muassasalari



Maktabgacha ta'lim muassasalari qurilishida jami 6982,1 mln. so'm investitsiyalar o'zlashtirilib, ulardan 100,0 % i Respublika budjeti hisobidan o'zlashtirildi.

350 qatnovga
mo'ljallangan
poliklinikalar



Kasalxona va poliklinikalar qurilishida jami 8434,8 mln. so'm investitsiyalar Respublika budjeti hisobidan o'zlashtirildi.



Qarshi tumanida 660 o'quvchi o'ringa mo'ljallangan maktablar ishga tushirildi.



Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo'limi

Aloqa telefoni: **(75) 221-32-47**